Аннотация. В данной статье на научной основе проведён системный анализ теоретических и практических аспектов кодификации законодательства. Основной целью исследования является раскрытие правовой сущности кодификации, определение её видов, принципов и места в правовой системе, а также оценка её значения в систематизации законодательства Республики Узбекистан. В ходе исследования использовались сравнительно-правовой, историко-правовой, системно-аналитический, логико-правовой и формально-юридический методы. Наряду с этим сравнительно изучен опыт государств Центральной Азии, России, Китая и европейских стран в сфере кодификации. В результате исследования установлено, что кодификация способствует последовательному формированию правовой системы, дальнейшему сокращению противоречий между нормативно-правовыми актами, упрощению правоприменительной практики и повышению доступности законодательства для граждан. Вместе с тем обоснована необходимость дальнейшего развития процесса кодификации в Республике Узбекистан в таких сферах, как международное частное право, административные процедуры, экологическое и образовательное право. В статье также исследованы теоретические и практические проблемы, возникающие в процессе кодификации, и предложены научные рекомендации по их устранению. Результаты исследования имеют важное

научно-практическое значение для совершенствования законодательства, развития правотворческой деятельности и разработки новых кодексов.

Ключевые слова: кодификация, систематизация законодательства, правовая система, кодекс, нормативно-правовые акты, правотворчество, международное частное право

THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF LEGISLATIVE CODIFICATION

Zokirov Shokhrukhbek Zohidjon ugli,

Lecturer of the Department of Legal Sciences,
Sarbon University

Abstract. This article provides a systematic analysis of the theoretical and practical aspects of legislative codification on a scientific basis. The main goal of the study is to clarify the legal essence of codification, determine its types, principles, and place in the legal system, and evaluate its significance in the systematization of legislation in the Republic of Uzbekistan. Comparative-legal, historical-legal, systematic analysis, logical-legal and formal-legal methods were used in the research. At the same time, the experience of Central Asian countries, Russia, China, and European countries in the field of codification was studied in comparison. As a result of the study, it was found that codification serves to consistently form a legal system, further reduce contradictions between regulatory legal acts, simplify law enforcement practice, and increase the clarity of legislation for citizens. At the same time, the need for further development of the codification process in Uzbekistan in some areas, such as private international law, administrative procedure, environmental and educational law, was justified. The article also examines theoretical and practical problems arising during the codification process and provides scientific proposals for their elimination. The research results are of great scientific and practical importance in improving legislation, developing lawmaking, and developing new codes.

Keywords: codification, systematization of legislation, legal system, code, normative legal acts, lawmaking, private international law

Kirish

Hozirgi paytda zamonaviy davlatning huquqiy tizimini takomillashtirish, uni tartibga solish va fuqarolar uchun tushunarli hamda sodda qonunchilik bazasini yaratish har doimgidan ham ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Kodifikatsiya aynan qonunchilikni tizimlashtirishning eng samarali shakli sifatida nafaqat huquqshunoslik fanida, balki davlat boshqaruvining amaliy sohasida ham eng asosiy o'rinda turadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy huquqiy tizimni mustaqil ravishda rivojlantirish yo'lini belgilab olib, qonunchilikni kodifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Bu jarayon ham nazariy, ham amaliy jihatdan qator muammolarni o'z ichiga qamrab oladi.

Kodifikatsiya huquqiy normalarni yangi mantiqiy, izchil va tugallangan tizimga yaxlit birlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon faqat qonunlar to'plamini tuzish bilan cheklanib qolmay, balki huquqiy normalarni qayta ishlash, ularni bir-biriga moslashtirish hamda mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni ham nazarda tutadi (Varga, 2023). Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston ham ushbu muammoni bartaraf

etishda o'ziga xos yo'l tutmoqda (Axmedshayeva, 2024). Kodifikatsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa uning nazariy asoslarini to'g'ri tanlash va belgilab olishga ko'p tomonlama bog'liqdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – qonunchilikni kodifikatsiya qilishning nazariy asoslarini tahlil qilish, uning turlari va tamoyillarini aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini tizimlashtirishda kodifikatsiyaning o'рни hamda ahamiyatini baholashdan iborat. Ushbu tadqiqotimiz quyidagi muammolarni hal etishga qaratilgan: birinchidan, kodifikatsiya tushunchasini huquqiy doktrinada to'g'ri qo'llash; ikkinchidan, kodifikatsiyaning turli shakllarini taqqoslash va ularning qo'llanish sohaslarini aniqlashtirib olish; uchinchidan, xususiy xalqaro huquqqa o'xshash maxsus sohalarda kodifikatsiyaning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini o'rganish; to'rtinchidan, milliy qonunchilikni tizimlashtirishdagi zamonaviy tendensiyalarni baholash va o'rganish. O'ylashimizcha, bunday masalalar O'zbekiston kabi o'tish davridagi davlatlar uchun juda muhim bo'lib, qonunchilik tizimini isloh qilish davom etmoqda.

Kodifikatsiya muammosi xorijiy va mahalliy huquqshunolar tomonidan atroflicha keng tadqiq etilgan va o'rganilgan. Xususan, Varga (2023) kodifikatsiyani huquq falsafasi va ijtimoiy falsafa nuqtayi nazaridan tahlil qilib, uni huquqiy tizimning evolyutsion rivojlanish bosqichi sifatida talqin qiladi. Ivanov (2024) esa qonunchilikni kodifikatsiya qilish bilan huquqni kodifikatsiya qilish o'rtasidagi tafovutni nazariy jihatdan asoslab beradi hamda bu farqning amaliy ahamiyatini ko'rsatib, tahlillarga qo'l uradi.

Ashuraxunova (2023) qonunchilikni tizimlashtirish nazariy masalalari doirasida kodifikatsiyaning turlarini batafsil tasniflab, har birining o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsatadi. Axmedshayeva (2024) Markaziy Osiyo davlatlarida kodifikatsiya jarayonini qiyosiy tahlil qiladi va mintaqaviy muammolarni alohida ta'kidlab, ularni bartaraf etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi. Raxmonqulova xususiy xalqaro huquq normalarini kodifikatsiya qilishning huquqiy doktrinadagi muammolarini tadqiq etib, bu sohadagi qarama-qarshiliklarni aniqlaydi (Rakhmonkulova, 2023). Chela, Fekolli va Kalemay (Çela et al., 2024) Yevropa xususiy xalqaro huquqini kodifikatsiya qilish masalasini ko'rib chiqish asosida xalqaro tajribani tahlil qiladi.

Xitoy huquqshunolari Li, Tyan va Li (2025) hamda Du, Din va Li (2025) atrof-muhit qonunchiligini kodifikatsiya qilish masalasini qiyosiy usulda o'rganib, Xitoy tajribasini jahon standartlari bilan taqqoslaydi va takliflar beradi. Soibnazarov (2026) zamonaviy jamiyatda huquq ijodkorligining qonunchilik tizimini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganib, kodifikatsiyaning ijtimoiy vazifasini asoslaydi. Zokirov (2026) esa O'zbekistonda ta'lim sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish masalasini tadqiq etadi. Bu tadqiqotlar kodifikatsiyaning ko'p qirrali tabiatini ko'rsatib, ushbu maqola uchun muhim nazariy zamin yaratadi.

Asosiy qism

Tadqiqotda qonunchilikni kodifikatsiya qilish sohasidagi nazariy va amaliy masalalar o'rganilgan. Jumladan, kodifikatsiya tushunchasi, turlari, tamoyillari, shuningdek, xususiy xalqaro huquq, ma'muriy huquq, mehnat huquqi, ekologiya huquqi kabi sohalardagi kodifikatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston, Rossiya, Uk-

raina, Belarus, Tojikiston va boshqa post-sovet mamlakatlari hamda Xitoy, Yevropa tajribasidagi kodifikatsiya jarayonlari qiyosiy tahlil qilinib, ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida qonunchilikni kodifikatsiya qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va huquqiy doktrina belgilangan. Tadqiqot obyekti deb kodifikatsiya jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar va ularning huquqiy tartibga solinishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Tadqiqot 2008–2026-yillar oralig'idagi ilmiy manbalar, qonunchilik hujjatlari va qiyosiy huquqshunoslik sohasidagi ishlanmalar asosiga qurilgan va yozilgan.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy (turli mamlakatlardagi kodifikatsiya jarayonlarini solishtirish uchun), tarixiy-huquqiy (kodifikatsiya tamoyillari va shakllarining evolyutsiyasini, ya'ni rivojlanishini o'rganish uchun), tizimli tahlil (kodifikatsiyaning huquqiy tizim bilan o'zaro munosabatini aniqlash uchun), mantiqiy-huquqiy (huquqiy normalar o'rtasidagi ziddiyatlar va bo'shliqlarni aniqlash uchun), shuningdek, formal-yuridik (normativ hujjatlarni sharhlash va tahlil qilish uchun) kabi ilmiy metodlardan foydalanilgan. Metodologik asos sifatida huquqiy pozitivizm, tabiiy huquq nazariyasi va sotsio-huquqiy yondashuv qo'llangan. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot mavzusini har tomonlama va chuqur o'rganish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

O'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, kodifikatsiya yuridik texnikaning maxsus usuli bo'lib, amaldagi huquqiy normalarni qayta ishlash, ularni yangi tizimga birlashtirish va yagona, normativ-huquqiy hujjat – kodeks shaklida mustahkamlashdan iboratdir (Odilqoriyev, 2018). Kodifikatsiyaning uch asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: to'liq (umumiy) kodifikatsiya, tarmoq kodifikatsiyasi va maxsus (muassasaviy) kodifikatsiya. Har birining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning qo'llanishi huquqiy tartibga solish sohasining o'ziga xosligiga bog'liq, deb qaraladi (Ashuraxunova, 2023).

O'zbekiston Respublikasida 1991-yildan faol kodifikatsiya jarayoni boshlandi. Bu jarayonni Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Yer kodeksi va boshqa fundamental kodekslarni qabul qilish bilan bog'lashimiz mumkin. Shuningdek, ayrim sohalarda,

xususan, xususiy xalqaro huquqda, ma'muriy protsedura sohasida kodifikatsiya hali to'liq amalga oshirilmagan va bu muammo dolzarb bo'lib qolmoqda (Rakhmonkulova, 2015; Fedorchuk, 2024). Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kodifikatsiya jarayoni doimiy va bosqichma-bosqich xarakter kasb etadi hamda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan birga yangilanib borishi lozim, deb hisoblanadi (Varga, 2023).

Tadqiqot quyidagi ilmiy-amaliy natijalarni berdi. Birinchidan, kodifikatsiya tushunchasiga nisbatan ikki xil yondashuv mavjudligi aniqlandi: tor ma'nodagi kodifikatsiya (faqat kodeks yaratish) va keng ma'nodagi kodifikatsiya (huquqni umumiy tizimlashtirish jarayoni). Ivanov (2024) ta'biricha, "qonunchilikni kodifikatsiya qilish" va "huquqni kodifikatsiya qilish" tushunchalari o'rtasidagi farqni aniq belgilash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, huquqiy normalar o'rtasidagi ziddiyatlar kodifikatsiyaning asosiy to'siqlaridan biri ekanligi tasdiqlandi (Lindahl & Reidhav, 2015). Uchinchidan, atrof-muhit huquqi, xususiy xalqaro huquq va ma'muriy huquq kabi sohalarda kodifikatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari aniqlandi (Du et al., 2025; Li et al., 2025; Çela et al., 2024).

Tahlil natijalariga ko'ra, qonunchilikni kodifikatsiya qilish jarayonining bir necha muhim jihatlari alohida ta'kidlash lozim. Al-Amoudi (2016) ta'kidlaganidek, ijtimoiy normalar, jumladan, huquqiy normalar ham mazmunan ijro etilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, kodifikatsiya nafaqat tashqi shaklni, balki normalarning ichki mohiyatini ham tartibga solish imkonini beradi. Bunday yondashuv kodifikatsiyaning yuzaki qonun to'plami sifatida emas, balki chuqur huquqiy islohot vositasi sifatida tushunilishini ta'minlaydi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda kodifikatsiya jarayonini yanada rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish zarur. Zokirov (2026) ushbu masalani ko'rib chiqib, bu sohada ham yagona kodeks yaratish zaruratini asoslaydi. Xususiy xalqaro huquq sohasida ham qonunchilikni tizimlashtirish masalasi Rakhmonkulova tomonidan o'rganilgan va ushbu sohadagi normalar hali tarqoq holda turli qonun hujjatlari-da joylashgani, ularni hal etish uchun esa yagona kodeks yaratish dolzarbligini haqida fikr yuritilgan (Rakhmonkulova, 2023). Von Schwind (1968) ham ellik yillar oldin ushbu muammoga e'tibor

qaratgan edi va ushbu masala hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xuddi shunday holat ma'muriy protsedura sohasida ham kuzatilmoqda: Kolomojets va Astahov (2011) Ukraina tajribasini tahlil qilib, ma'muriy protsedura qonunchiligini kodifikatsiya qilishning zarurligini asoslab bergan.

Tadqiqot davomida bir qator nazariy va amaliy muammolar aniqlandi. Birinchi muammo – kodifikatsiyaning universal yoki umumiy ta'rifi mavjud emasligi. Turli huquqiy tizimlar – kontinental, anglo-sakson va aralash tizimlarda kodifikatsiya turlicha talqin qilinadi (Varga, 2023). Ikkinchi muammo – kodifikatsiya jarayonida huquqiy normalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish. Lindahl va Reidhav (2015) ushbu ziddiyatlarning turlari va ularni hal qilish yo'llarini batafsil tahlil qilgan. Uchinchisi muammo – atrof-muhit huquqi kabi sohalarda huquqiy normalarning tez o'zgarishi tufayli ularni yagona tizimga solib, tartibli saqlash tobora qiyinlashib bormoqda (Du et al., 2025).

Shuningdek, post-sovet mamlakatlari uchun xos bo'lgan muammo – sovet davrida shakllangan huquqiy texnika va milliy huquqiy an'analar o'rtasidagi ziddiyat ham mavjud. Nematov (2008) Tojikiston, Krivoy (1996) Belarus, Vasileva (2010), Vitryanskiy va boshqalar (2015) Rossiya tajribasini o'rganib, bu muammolarga munosabat bildirgan. Shmelev (2021) imlo normalarini kodifikatsiya qilishda ham o'xshash qiyinchiliklar yuzaga kelishini ta'kidlab, umumiy kodifikatsiya tamoyillari turli sohalarda qo'llanishini ko'rsatadi.

Turli tadqiqot metodlarining qiyosiy tahlilidan ma'lum bo'lishicha, qiyosiy-huquqiy metod kodifikatsiya sohasidagi xalqaro tajribani o'rganishda eng samarali hisoblanadi. Li va boshqalar (2025) Xitoy atrof-muhit qonunchiligini kodifikatsiya qilishni qiyosiy nuqtayi nazardan o'rganib, qiyosiy metodning yutuqlarini qayd etgan. Uayli, Bostin va Gantman (Wylie et al., 2025) esa normalarni belgilash va kodifikatsiya qilishda ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlab, ko'p metodli yondashuvning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan.

Ushbu tadqiqot natijalarini boshqa ishlar bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kodifikatsiya jarayoni umuman olganda ijobiy tendensiyaga ega, ammo ba'zi sohalarda orqada qolmoqda. Soibnazarov (2026) zamonaviy jamiyatda huquq ijodkorligining qonunchilik tizimini

rivojlantirishdagi rolini tahlil qilib, kodifikatsiya-ni zamonaviy qonunchilik faoliyatining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Axmedshayeva (2024) Markaziy Osiyo davlatlari tajribasini qiyoslab, mintaqaviy hamkorlik va tajriba almashish zarurligini ta'kidlagan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalar tahlilidan kelib chiqib, aytish mumkinki, qonunchilikni kodifikatsiya qilish zamonaviy huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U samarali amalga oshirilishi uchun kuchli va yetarli nazariy asos, malakali xodimlar va siyosiy irodaning uyg'unligi talab etiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiya ishlari davom ettirilmoqda. Biroq ta'lim huquqi, xususiy xalqaro huquq, ma'muriy protsedura huquqi va ekologiya huquqi kabi sohalar kodifikatsiya jarayoni hali o'z yakuniga yetmagan. Bu sohalar alohida e'tibor va tahlilni talab qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, kodifikatsiya – huquqiy normalarni yangi, mantiqiy va izchil tizimga birlashtiruvchi, ularni qayta ishlovchi hamda yagona normativ-huquqiy hujjat shaklida mustahkamlovchi jarayon bo'lib, u huquqiy tartibga solishning sifatini tubdan yaxshilash imkonini beradi. Ikkinchidan, kodifikatsiyaning turlari va shakllari huquqiy tartibga solinayotgan munosabatlarning xususiyatiga qarab tanlanishi kerak va bu jarayonni sohaga qarab individuallashtirilgan yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, xususiy xalqaro huquq, ma'muriy protsedura huquqi va ta'lim huquqi sohasida kodifikatsiya jarayonini tezlashtirish zarur (Rakhmonkulova, 2023; Fedorchuk, 2024; Zokirov, 2026).

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: birinchidan, O'zbekiston Respublikasida Xususiy xalqaro huquq to'g'risidagi kodeksni ishlab chiqish va qabul qilish; ikkinchidan, ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikni yagona kodeks ko'rinishiga keltirish; uchinchidan, ta'lim sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish ishlarini yakunlash va Ta'lim kodeksini qabul qilish; to'rtinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan kodifikatsiya sohasida tajriba almashish va hamkorlikni yo'lga qo'yish (Axmedshayeva, 2024). Ushbu takliflarni amalga oshirish O'zbekiston huquqiy tizimini yanada ta-

komillashtiradi, fuqarolar va tadbirkorlar uchun huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi hamda xalqaro hamkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Demak, kodifikatsiya – bir martalik jarayon emas, balki huquqiy tizimning doimiy rivojlantirishini ta'minlovchi uzluksiz mexanizm. Fan va jamiyatning rivojlanishi bilan birga, qonunchilikni yangilash, zamonaviy munosabatlarni yangi kodekslar doirasida tartibga solish davlat oldidagi doimiy vazifa, deya ta'kidlashimiz mumkin (Soibnazarov, 2026; Varga, 2023). Shu sababli kodifikatsiya nazariyasi va amaliyotini muntazam o'rganish hamda takomillashtirish huquqshunoslik fanining ustuvor yo'nalishidir.

Xulosa

Qonunchilikni kodifikatsiya qilish zamonaviy huquqiy tizimni barqaror, izchil va samarali rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Kodifikatsiya jarayoni nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish va tizimlashtirishni, balki huquqiy tizimdagi ziddiyatlarni bartaraf etish, huquq normalarini uyg'unlashtirish hamda ularni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishni ham o'z ichiga oladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kodifikatsiya jarayoni murakkab va ko'p bosqichli huquqiy hodisa bo'lib, uning samaradorligi nazariy asoslarning puxtaligiga, huquqiy texnika darajasiga hamda amaliy huquq ijodkorligining izchilligiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kodifikatsiya islohotlari ijobiy xarakterga ega bo'lsa-da, ayrim sohalar, xususan, xususiy xalqaro huquq, ma'muriy protsedura va ta'lim huquqi yo'nalishlarida tizimli yondashuvni yanada kuchaytirish zarur.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlil shuni tasdiqlaydiki, rivojlangan davlatlar tajribasi kodifikatsiyaga doimiy yangilanib boruvchi va evolyutsion jarayon sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi. Bu esa milliy qonunchilikni zamonaviy ko'rinishga keltirishda uzluksizlik va moslashuvchanlik tamoyillarining muhimligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Umuman olganda, kodifikatsiyani takomillashtirish nafaqat huquq tizimining ichki uyg'unligini mustahkamlaydi, balki fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, huquqni qo'llash amaliyotini osonlashtirish va davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirishga ham yordam

beradi. Shu sababli kodifikatsiya jarayonini ilmiy asosda rivojlantirish va uni zamonaviy huquqiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida davom ettirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

REFERENCES

- Al-Amoudi, I. (2016). *In letter and in spirit: Social morphogenesis and the interpretation of codified social rules. In Morphogenesis and the crisis of normativity* (pp. 113–139). Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-28439-2_6
- Ashuraxunova, S. (2023). Qonunchilikni tizimlashtirishning nazariy masalalari: kodifikatsiyalashning turlari [Theoretical issues of systematization of legislation: Types of codification]. *Collection of Scientific Papers "SCIENTIA"*, 64–66. <https://previous.scientia.report/index.php/archive/article/view/929>
- Axmedshayeva, M. (2024). Markaziy Osiyo davlatlarida kodekslashtirish jarayoni: ayrim nazariy-huquqiy masalalar [Codification process in Central Asian states: some theoretical and legal issues]. *Jurisprudence*, 4(4), 11–18.
- Çela, E., Fekolli, S., & Kalemaj, E. (2024). Codification of European private international law. *Interdisciplinary Journal of Research and Development*, 11(1 S1), 154. <https://doi.org/10.56345/ijrdv11n1s124>
- Du, Q., Ding, N., & Li, J. (2025). Status and development of natural resources law in the codification of environmental law. In *Environmental law codification in China: Paradigm change in environmental legislation* (pp. 137–165). Springer Nature Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-96-9211-8_7
- Fedorchuk, M. V. (2024). The problem of codification of administrative tort norms: Normative approach. In *International scientific and practical conference "Development of science and technology: Challenges of our time"* (pp. 109–112). Baltija Publishing. <https://doi.org/10.30525/978-9934-26-493-1-109>
- Ivanov, A. B. (2024). Codification of legislation or codification of law: Statement of the problem. *Yaroslavl State University Bulletin. Series Humanities*, 18(4), 594–607. <https://doi.org/10.18255/1996-5648-2024-4-594-607>
- Kolomojets, T. O., & Astahov, D. S. (2011). *Kodifikatsiya administratyvno-protsedurnoho zakonodavstva Ukraini* [Codification of administrative procedural legislation of Ukraine]. ZNU.
- Krivoy, V. (1996). *Kodifikatsiya zakonodatelstva o trude Belarusi* [Codification of Belarus labor legislation]. <https://ssrn.com/abstract=3328000>
- Li, Y., Tian, S., & Li, S. (2025). Codification of China's environmental law in a comparative perspective. In *Environmental law codification in China: Paradigm change in environmental legislation* (pp. 53–74). Springer Nature Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-96-9211-8_3
- Lindahl, L., & Reidhav, D. (2015). *Conflict of legal norms: Definition and varieties. In Logic in the theory and practice of lawmaking* (pp. 49–95). Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-319-19575-9_2
- Nematov, A. (2008). *Kodifikatsiya zakonodatelstva Respubliki Tadjikistan* [Codification of the legislation of the Republic of Tajikistan]. Sputnik+. <https://lawtheses.com/kodifikatsiya-zakonodatelstva-respubliki-tadjikistan>
- Odilqoriyev, X. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Adolat.
- Rakhmonkulova, N. (2015). Issues of improving the legal documents' codification of the private international law. *The Advanced Science Journal*, 4, 96–98. <https://doi.org/10.15550/ASJ.2015.04.096>
- Rakhmonkulova, N. (2023). Problems of codification of norms of private international law in legal doctrine. *Society and Innovation*, 4(6), 24–31. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6-pp24-31>
- Shmelev, A. D. (2021). Kodifikatsiya orfograficheskikh norm: obshchie printsipy i podvodnye kamni [Codification of spelling norms: General principles and pitfalls]. *Proceedings of the V. V. Vinogradov Russian Language Institute*, 3, 11–25.
- Soibnazarov, X. (2026). Zamonaviy jamiyatda huquq ijodkorligining qonunchilik tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati [The importance of law-making in the development of the legislative system in modern society]. *Studies*, 85(2), 236–243.
- Varga, C. (2023). *Codification. In M. Sellers & S. Kirste (Eds.), Encyclopedia of the philosophy of law and social philosophy* (pp. 476–483). Springer Netherlands. https://doi.org/10.1007/978-94-007-6519-1_398
- Vasileva, Yu. V. (2010). *Kodifikatsiya rossiiskogo zakonodatelstva o sotsialnom obespechenii: teoreticheskie i prakticheskie problemy* [Codification of Russian legislation on social security: Theoretical and practical problems]

(Publication No. 317316) [Doctoral dissertation, Moscow State University of Printing Arts]. Dissercat. <https://www.dissercat.com/content/kodifikatsiya-rossiiskogo-zakonodatelstva-o-sotsialnom-obespechenii-teoreticheskie-i-praktic>

Vitryanskiy, V. V., Golovina, S. Y., & Gongalo, B. M. (2015). *Kodifikatsiya rossiyskogo chastnogo prava 2015* [Codification of Russian private law 2015]. Statut. <https://dokumen.pub/2015-e-5178824.html>

Von Schwind, F. (1968). Problems of codification of private international law. *The International and Comparative Law Quarterly*, 17(2), 428–442. <https://www.jstor.org/stable/757113>

Wylie, J., Bostyn, D., & Gantman, A. (2025). People use norms, values, codification, and enforceability to determine if a rule was broken. *Open Mind*, 9, 1158–1184. <https://doi.org/10.1162/opmi.a.19>

Zokirov, Sh. (2026). O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasiga oid qonunchilikni tizimlashtirishning ahamiyati [The importance of systematization of legislation on education in the Republic of Uzbekistan]. *Universal Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 4(35), 87–91. <https://sr-journals.org/index.php/UJLFAS/article/view/1335>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>